

**PARALIMPIYA SPORTCHILARINING XALQARO HUQUQIY
HIMOYASI**

Xoshimova Saodatxon

Toshkent davlat yuridika universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi yo'nalishi talabasi

saodatkhashimova267@gmail.com

***Annotatsiya:** ushbu ilmiy tezisdagi paralimpiya sportchilarining xalqaro huquqiy himoyasi masalasi o'rganiladi. Tezisdagi nogironligi bo'lgan sportchilarning sportda ishtirok etish huquqlari, xalqaro huquqiy me'yorlar, shuningdek, ularning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynagan tashkilotlar, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Xalqaro Paralimpiyachilar Qo'mitasining(IPC) xalqaro miqyosdagi roli tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** paralimpiya sportchilari, xalqaro huquqiy himoya, nogironlar huquqlari.*

**МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАВОВАЯ ЗАЩИТА
ПАРАЛИМПИЙСКИХ СПОРТСМЕНОВ**

Хашимова Саодахан

Ташкентский государственный юридический университет

Факультет магистратуры и заочного образования

Студент факультета права СМИ

saodatkhashimova267@gmail.com

Аннотация: в научной диссертации рассматривается вопрос международно-правовой защиты спортсменов-паралимпийцев. В диссертации анализируются права спортсменов с ограниченными возможностями на участие в спорте, международные правовые нормы, а также международная роль организаций, сыгравших важную роль в защите их прав, таких как Организация Объединенных Наций (ООН) и Международный паралимпийский комитет (МПК).

Ключевые слова: спортсмены-паралимпийцы, международно-правовая защита, права лиц с ограниченными возможностями.

INTERNATIONAL LEGAL PROTECTION OF PARALYMPIC ATHLETES

Khoshimova Saodatkhan

Tashkent State University of Law

Faculty of Master's and Correspondence Education

Student of Mass Media Law

saodatkhashimova267@gmail.com

Abstract: this scientific thesis studies the issue of international legal protection of Paralympic athletes. The thesis analyzes the rights of athletes with disabilities to participate in sports, international legal norms, as well as the

international role of organizations that have played an important role in protecting their rights, such as the United Nations (UN) and the International Paralympic Committee (IPC).

Keywords: *paralympic athletes, international legal protection, rights of people with disabilities.*

Mavzuning dolzarbligi. Sportchilar – paralimpiya ishtirokchilarining o'ziga xos huquqiy holati bilan, ularning ikki tomonlama tabiatiga bog'liqdir. Ular sport musobaqalarida sport natijalarini qo'lga kiritish maqsadida qatnashish bilan birga, chuqurlashtirilgan jismoniy rehabilitatsiya, ijtimoiy moslashuv va jamiyatga integratsiya qilishni ham o'z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida belgilaydilar. Paralimpiya sportchilarining huquqlarini himoya qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayoni Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) xalqaro konvensiyalari va deklaratsiyalariga bog'liq bo'lib, ular inson huquqlarini himoya qilishni va diskriminatsiyaning barcha shakllarini yo'q qilishni ta'minlaydi. Aynan BMT tomonidan nogironlik «sukunatdagi fojia» deb atalgan. BMT tomonidan nogironlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. BMT nogironlikni rehabilitatsiya yoki ijtimoiy ta'minot muammosi emas, balki inson huquqlari masalasi sifatida ko'rib chiqadi, bu esa xalqaro huquq va inson huquqlari sohasida yondashuvlarning o'zgarishiga olib keldi. Endilikda, «nogiron – atrof-muhit – jamiyat» munosabati shunday tarzda shakllantirildi-ki, o'zgartirishlar jamiyatga emas, balki muhitga qaratilishi kerakligi ta'kidlandi. Bu esa yillar davomidagi eski

qarashlarni umuman o'zgarishiga olib keldi. BMTning bu yo'nalishdagi faoliyatini quyidagi tarzda davrlar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. 1948 yil – Inson huquqlari bo'yicha Umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi, u nogironlarning huquqlarini inson huquqlari doirasida himoya qilishning asosiy tamoyillarini belgiladi.
2. 1966 yil – Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qabul qilindi (BMT Bosh Assambleyasining 2200 A (XXI) qarori).
3. Keyingi bosqichda nogironlarning huquqlarini amalga oshirishni ta'minlashda ikkita Konvensiya qabul qilindi.
4. Xalqaro irqiy diskriminatsiyani yo'qotish to'g'risidagi Konvensiya (1965 yil)
5. Ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarini yo'qotish to'g'risidagi Konvensiya (1979 yil) .

Keyinchalik, 1971 yilda BMT Bosh Assambleyasi aqlan orqada qolgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qilgan, 1975 yilda esa Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qildi.

BMTning keyingi faoliyati jamiyatning nogironlarga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish va nogironlarga nisbatan diskriminatsiyani bartaraf etishga qaratildi, BMTning nogironlar bilan ishlovchi xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlik qilindi. Bu jarayonga 1981 yil BMT tomonidan nogironlar uchun xalqaro yil deb e'lon qilinishi, shuningdek, 1983-1992 yillarni "Nogironlar o'n yilligi" sifatida belgilanishi katta hissa qo'shdi.

1992-yil dekabr oyida BMT Bosh Assambleyasi 3 dekabrni Xalqaro nogironlar kuni deb e'lon qildi - bu kun nogironlarning teng huquqlari va

imkoniyatlari kuni sifatida nishonlanadi. 1992 yil 28 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida Nogironlar uchun teng imkoniyatlar ta'minlash bo'yicha standart qoidalar qabul qilindi, ular nogironlarning hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Ushbu qoidalar hukumatlarga nogironlarni o'z mamlakatlarining to'laqonli fuqarolari bo'lishi uchun qanday choralar ko'rishni belgilab berdi.

Paralimpiya harakatining shakllanishi, Xalqaro Paralimpiyachilar Qo'mitasining (MPK) va O'zbekiston Paralimpiyachilar Qo'mitasi MPK a'zosi bo'lishi, BMTning nogironlar huquqlarini himoya qilishdagi umumiy faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

MPK – bu xalqaro notijorat tashkilot bo'lib, uning faoliyati asosiy hujjat – MPKning 2004 yildagi Nizomi asosida amalga oshiriladi. 2008 yildan boshlab, MPK BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi huzuridagi maslahat maqomiga ega bo'lgan. So'nggi yillarda MPK Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi va boshqa organlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. BMT, xususan, Xalqaro sport bo'yicha BMT idorasi va BMT Inson huquqlari Kengashi bilan hamkorlik qiladi. MPK va BMT o'rtasidagi asosiy hamkorlik yo'nalishi, 2006-yilgi Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirishga qaratilgan. BMT Bosh Assambleyasi ushbu hujjatni qabul qilgan, chunki «nogironlarning huquqlari va sha'nini rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha umumiy va yagona xalqaro konvensiya, nogironlarning ijtimoiy holatini yaxshilash va ularning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda teng imkoniyatlar asosida ishtirok etishini kengaytirishga muhim hissa qo'shadi» .

BMT Inson huquqlari kengashi 2013 yil 8 oktabrda qabul qilgan 24/1-rezolyutsiyasida «Sport orqali inson huquqlarini rag'batlantirish va Olimpiya idealini ilgari surish» mavzusida MPK, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi(XOQ) va Xalqaro sportni rivojlantirish va tinchlik uchun sport tashkiloti (ISDB) bilan hamkorlikning ahamiyati ta'kidlangan. Ushbu hamkorlik inson huquqlari, kambag'allikni bartaraf etish, gumanitar yordam, sog'liqni saqlash, OIV va SPIDni oldini olish, bolalar va yoshlar ta'limi, gender tengligini ta'minlash, tinchlikni saqlash va barqaror rivojlanish kabi sohalarda amalga oshirilmoqda. Shuningdek, davlatlarga XOK va MPK bilan hamkorlik qilishga chaqirildi, buning maqsadi sportni inson huquqlarini rag'batlantirish, rivojlanish, tinchlik, muloqot va nizolarni hal qilish vositasi sifatida ishlatishdir.

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 25-moddasiga ko'ra, ishtirokchi davlatlar nogironlarning sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish huquqini tan olishadi, bu esa ular uchun eng yuqori darajadagi sog'liqni saqlashni ta'minlashni o'z ichiga oladi. 26-moddada esa, davlatlar nogironlarga maksimal mustaqillikka erishish, barcha jismoniy, aqliy, ijtimoiy va kasbiy imkoniyatlarni rivojlantirish hamda hayotning barcha jabhalarida faol ishtirok etishni ta'minlash uchun samarali va tegishli chora-tadbirlar ko'rishlari kerakligi ko'rsatilgan. Shuningdek, 30-modda nogironlarning madaniy hayotda, bo'sh vaqtini o'tkazishda va sport bilan shug'ullanishda ishtirok etish huquqlarini ko'rsatadi. Unda ishtirokchi davlatlar nogironlarni boshqa shaxslar bilan birga sport tadbirlarida ishtirok etish imkoniyati bilan ta'minlashlari kerakligi ta'kidlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqaro miqyosda va O'zbekistonda paralimpiya harakatining shakllanishi, O'zbekiston Paralimpiyachilar

Qo'mitasining tashkil etilishi va uning xalqaro hamkorligi, BMTning nogironlar huquqlarini himoya qilishdagi umumiy faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston hukumati ham BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan va bu konvensiya asosida mamlakatda nogironlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar va dasturlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston, 2012 yildan boshlab, paralimpiya harakatida faol ishtirok etib kelmoqda va turli xalqaro musobaqalarda nogiron sportchilarining muvaffaqiyatlariga erishmoqda. O'zbekiston Paralimpiyachilar Qo'mitasi tomonidan paralimpiya sporti sohasida muvaffaqiyatli ishlanmalarga erishilib, bu harakatning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, jamiyatda nogironlarni ijtimoiy integratsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. - URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml.
2. Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 1975 yil 9 dekabrda 3447 (XXX) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. - URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/disabled.shtml.
3. Nogironlarning huquqlari himoya qilish to'g'risidagi konvensiya. 2006 yil 13 dekabrda Nyu-Yorkda imzolangan. - URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.shtml.

4. MPK qoidalar to'plami. - URL:
<http://www.paralympic.org/powerlifting/rules-andregulations/classification>.
5. Paralimpiya Xartiyasi. Xalqaro Paralimpiya Qo'mitasining Nizomi. -
URL: <http://www.paralympic.org>.